

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

HAJIMURATOV NIZOMJON SHUKURULLAYEVICH

TO‘RAYEV ABDURAHIM NORTOJOYEYEVICH

TULOVOV ERKINJON TO‘LQIN O‘GLI

ALIYEV SHERZOD ABDIXOMIDOVICH

**BUXGALTERIYA HISOBINING DASTURIY KOMPLEKSLARI
O‘QUV QO‘LLANMA**

5230900 – “Buxgalteriya hisobi va audit” ta‘lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan

TOSHKENT–2022

Tuzuvchilar: N.SH.Hajimuratov, A.N.To'rayev, E.T. Tulovov, SH.A.Aliyev "Buxgalteriya hisobining dasturiy komplekslari". O'quv qo'llanma. T.: 2022.

Ushbu o'quv qo'llanma Davlat ta'lim standartlari talablari "Buxgalteriya hisobining dasturiy komplekslari" o'quv dasturiga asosan tuzilgan bo'lib, 5230900 – "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Qo'llanmada buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning nazariy va amaliy asosi yoritilgan va u xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi sodir bo'ladigan muomalalarni hisobga olish, ularni hujjatlashtirish, umumlashtirish, moliyaviy faoliyati to'g'risidagi to'liq va ishonarli ma'lumotlarni shakllantirish hamda ushbu ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda tezkor yuritish va qayta ishlashni o'rgatadi.

Mazkur o'quv qo'llanma talabalar uchun "Buxgalteriya hisobining dasturiy komplekslari" fanidan asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan boshqa iqtisodiy yonalishlarda tahsil olayotgan talabalar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mutaxassislari, ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar ham foydalanishlari mumkin.

Учебник разработан с учетом требований государственных образовательных стандартов учебная программа "Программные комплексы бухгалтерского учета" и рассчитан на студентов специальности 5230900 - "Бухгалтерский учет и аудит".

Пособие дает теоретическую и практическую основу автоматизации бухгалтерского учета, обучает учету операций в хозяйствующих субъектах, их документальному оформлению, обобщению, формированию полной и достоверной информации о финансовой деятельности, автоматизации обработки и обработки этой информации.

Данное пособие основано на зарубежном опыте в области «Программные комплексы бухгалтерского учета» и может быть использовано студентами экономических специальностей, бизнес-специалистами и исследователями в этой области.

The textbook was developed taking into account the requirements of state educational standards, the curriculum "Accounting software systems" and is designed for students of the specialty 5230900 - "Accounting and Audit".

The manual provides a theoretical and practical basis for the automation of accounting, teaches the accounting of operations in economic entities, their documentation, generalization, the formation of complete and reliable information about financial activities, automation of processing and processing of this information.

This manual is based on foreign experience in the field of "Accounting software systems" and can be used by students of economic specialties, business professionals and researchers in this field.

Tuzuvchilar:

- | | |
|------------------|---|
| N.SH.Hajimuratov | – TDIU “Moliyaviy tahlil va audit” kafedrası professori, i.f.d. |
| A.N.To'rayev | – TDIU “Moliyaviy tahlil va audit” kafedrası professori, i.f.d. |
| E.T.Tulovov | – TDIU “Moliyaviy tahlil va audit” kafedrası assistenti. |
| Sh.A.Aliyev | – TDIU “Moliyaviy tahlil va audit” kafedrası assistenti. |

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------|---|
| U.A.Nurmanov | TDIU “Moliyaviy tahlil va audit” kafedrası dotsenti |
| G'.D.Tashmanov | – TMI, “Buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti |

KIRISH

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davriga guvoh bo'lib turibmiz. Axborot texnologiyalarining ishlab chiqarish jarayonida joriy etilishi ham yuqori samaraga ega bo'lmoqda. Xuddi shu kabi buxgalteriya hisobini axborot texnologiyalari orqali yuritish ham yuqori samara berishi hech kimga sir emas. Bu borada, mamlakatimizda yetarlicha amaliy tajriba orttirilgan. Masalan, IS:Buxgalteriya dasturiy ta'minotini milliy qonunchiligimizga moslashtirilishi yoki IUZ dasturiy ta'minotlarining ishlab chiqilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, har bir xo'jalik yurituvchi shaxs o'z faoliyati xususiyatidan, salohiyatidan kelib chiqib, buxgalteriya hisobini yuritish uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqishi yoki faqatgina o'zi foydalanadigan dasturiy ta'minot sotib olishi mumkin. Ushbu holatda savol tug'iladi. Buxgalteriya hisobini axborot texnologiyalari asosida yuritishda buxgalteriya hisobi qonunchiligi nuqtayi nazaridan qanday talablar va chegaralar qo'yilgan.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan¹.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning 1-va 5-moddalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisobot tuzish bilan bog'liq munosabatlar ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi hamda buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari bilan belgilanishi ko'rsatilgan.

1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" ga asosan hisob siyosati deganda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzishning qoidalari va asoslariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektning rahbari tomonidan qabul qiladigan usullar yig'masi tushuniladi.

Buxgalteriya hisobi usullariga ularni guruhlariga ajratish va xo'jalik faoliyati faktlariga baho berish, aktivlar qiymatini to'lash, hujjatlar aylanishini, inventarizatsiyadan o'tkazishni tashkil etish usullari, buxgalteriya hisobi schyotlarini qo'llash usullari, hisob registrlari tizimlari, ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqa tegishli usullar kiritiladi.

Demak, ma'lumotlarning axborot texnologiyalari orqali qayta ishlanishi korxona hisob siyosatida aks ettirilishi kerak.

"Dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarining milliy reestri to'g'risida"gi Nizomga asosan dasturiy ta'minot vositalari — algoritm tilida taqdim etilgan operatsiyalar, komandalar va ma'lumotlarning mantiqiy tashkil etilgan yig'indisidan iborat va muayyan natijaga erishish maqsadida kompyuterda amalga oshirish uchun mo'ljallangan intellektual mulk ob'ekti. Dasturiy ta'minot vositalari deganda ularni ishlab chiqish davomida olingan tayyorlov materiallari ham nazarda tutiladi.

Xulosa qilish mumkinki, buxgalteriya hisobini yuritishda qo'llaniladigan dasturiy ta'minot "Dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarining milliy reestri to'g'risida"gi Nizomda keltirilgan talablarga mos kelishi va undagi algoritm tilida taqdim etilgan operatsiyalar, komandalar va ma'lumotlarning mantiqiy tashkil etilgan yig'indisi buxgalteriya hisobi qonunchiligida o'rnatilgan metodologiyaga mos kelishi lozim hamda korxonada shu tartibda yaratilgan dasturiy ta'minot asosida buxgalteriya hisobi yuritilayotganligi korxona hisob siyosatida aks ettirilishi lozim.

Bundan tashqari, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan tartibda yuritish yoki yuritmaslikdan qat'iy nazar boshlang'ich hujjatlar elektron shaklda tuzilganda "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun va "Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risida"gi Nizom talablariga rioya qilish kerak.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 06-oktyabrdagi PF-6079 –sonli "Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

1-BOB. BUXGALTERIYA HISOBIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.

- 1.1. Zamonaviy axborot texnologiyalarining yangi avlodlari va ulardan iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanish imkoniyatlari.
- 1.2. Buxgalteriya hisobida dasturiy ta'minot vositalaridan foydalanish.
- 1.3. Hisob hujjatlarini elektron hujjat tarzida tuzish va taqdim etish.

1.1.Zamonaviy axborot texnologiyalarning yangi avlodlari va ulardan iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanish imkoniyatlari.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarisiz korxonalar faoliyatini rivojlantirishni hech kim tassavvuriga ham sig'dira olmaydi. Chunki hozirgi kunda axborot kommunikatsion texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda, bu esa korxonalarga o'z faoliyatiga yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni kiritish, yuqori texnologiyalardan foydalanib raqobatbardoshligini oshirish vazifalarini yuklaydi. Mamlakatimizda "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasi qabul qilinib, unga ko'ra "aqlli transport", "aqlli ta'lim", "aqlli tibbiyot", "aqlli energetika tizimi", "aqlli qurilish", "aqlli kommunal xo'jalik", "aqlli uy", "aqlli hokimiyat", "aqlli mahalla" kabi loyihalar "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etishning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilandi. Shu bilan birgalikda mamlakatimizning aksariyat korxonalarida AKTni joriy etish masalalarida bir qancha muammolar saqlanib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yilidagi ijrosi bo'yicha dasturda ham bunga katta ahamiyat qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida chuqur, keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilgan ekan, uzluksiz huquqiy ta'lim tizimini shakllantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Darhaqiqat, kelajagi buyuk davlatni qurish tafakkuri, dunyoqarashi o'zgargan rahbar xodimlarimiz, mutaxassislarimizning faoliyatiga ko'p jihatdan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, yangicha fikrlaydigan, o'z xizmat sohasi va faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan, yuksak malakali, chuqur bilimli rahbar xodimlarni tayyorlash bugungi kunda davr talabi bo'lib qoldi². Zamonaviy hayotimizda axborot texnologiyalari ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha jabhalarida faoliyat yurituvchi barcha turdagi tashkilotlarni boshqarishda qo'llaniladi. Axborotni boshqarish texnologiyalarining eng ustun va aniq afzalliklari tijorat tashkilotlari amaliyotida paydo bo'la boshladi.

Axborot texnologiyalari yordamida korxonalarni boshqarish - tizimli dasturiy ta'minot, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish asosida boshqarish vazifalarini hal etish uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va axborotni muhofaza qilish, bilim usullari va vositalari majmuini tashkil etishdan iboratdir. Boshqaruvda axborot texnologiyalari avtomatlashtirilgan tarzda tez-tez ishlatiladi, ya'ni texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda boshqarish texnologiyalarini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Umuman olganda axborot texnologiyalari - bu ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyasidir. Odatda bu atama ostida kompyuter texnologiyalari tushuniladi. Axborot texnologiyalari sohasida turli axborotni elektron hisoblash mashinalari (EHM) va kompyuter tarmoqlari orqali yig'ish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish kabi amallar ustida ishlar olib boriladi. Axborot texnologiyasi asosiy texnik vositalari sifatida hisoblash - tashkiliy texnikadan tashqari aloqa vositalari - telefon, teletayp, telefaks va boshqalar qo'llaniladi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda. Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar bazasi, bilimlar bazasi va u bilan bog'liq faoliyat sohalarini tashkil qiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalarini shartli ravishda saqlovchi, ratsionallashtiruvchi va yaratuvchi turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni va vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mehmonxona hisob-kitoblari tizimlari misol bo'la oladi. Yaratuvchi (ijodiy) axborot texnologiyalari

² Iminov A.A., Djamatov M.X. "Boshqaruvda axborot texnologiyalari" ma'ruzalar matni. Toshkent-2017.

axborotni ishlab chiqaradigan, undan foydalanadigan va insonning tarkibiy qismi sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat. Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodiyotni rivojlantirish, mamlakat fan-texnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi. Korxona boshqaruvi uchun zamonaviy axborot texnologiyalarining asosiy vazifalari - kerakli ma'lumotlarni qidirish, to'plash, qayta ishlash, saqlash, yangi ma'lumotlarni ishlab chiqish va optimallashtirishning turli xil muammolarini hal etishdan iboratdir. Vazifa nafaqat vaqtni sarflaydigan, muntazam takrorlanadigan, ma'lumotlarni qayta ishlash operatsiyalarini tanlash va avtomatlashtirish, balki samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan yangi ma'lumotlarni olish uchun ularni qayta ishlash orqali ham amalga oshiriladi. So'nggi o'n yil ichida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida korxonalarni boshqarish, boshqaruvda sezilarli darajada imkoniyatlarni yaratmoqda, chunki ular barcha darajadagi menejerlarga va korxonalarining rahbarlariga eng yaxshi va muqobil boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy axborotni qayta ishlash va tahlil qilishning so'nggi usullari bilan ta'minlanib kelinmoqda. Bugungi kunda axborot texnologiyalarini boshqaruvga tadbiiq etish xarajatlari nafaqat to'lash, balki daromad olish imkonini ham bermoqda. Ma'lumki, yirik g'arbiy korporatsiyalar korporativ axborot tizimlarini ishlab chiqish va rivojlantirish uchun har yili yillik aylanma mablag'larining 1,5 dan 4 foizi miqdorida sarflaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqa turdagi texnologiyalarning funksional tarkibiy qismlari (masalan, ishlab chiqarish, tashkiliy, ijtimoiy) va ularning intellektual yadrosi rolini o'ynaydi. Ayni paytda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyot rivojlanishining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Deyarli barcha firmalar va iste'molchilar, iste'molchilarni ko'proq diversifikatsiyalangan hamda moslashtirilgan mahsulotlar bilan ta'minlash, mahsulot sifatini oshirish, tovar va xizmatlarni sotish kabi kompyuter va internet tarmog'idan iqtisodiy maqsadlarda foydalanish rivojlanib bormoqda. Barchamizga ma'lumki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengaytirish va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri so'nggi yigirma yil ichida jadal sur'atlar bilan o'sib kelmoqda. Biroq, kompyuter, mobil telefon va internet foydalanuvchilari haqidagi mamlakat ichidagi ma'lumotlar mamlakat va mintaqalar bo'yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turli tarqalish ko'rsatkichlarini aks ettiradi, oxirgi jahon iqtisodiy inqiroziga qaramasdan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'rsatkichlari ortib borayotgan tendensiyani namoyish qiladi. Aslida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari elektronika, telekommunikatsiya, dasturiy ta'minot, tarmoqlar, markazlashtirilmagan kompyuter ish stansiyalari va ommaviy axborot vositalarining integratsiyasi bo'lib, ularning barchasi firmalar, sanoat va umuman olganda iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari radio, televideniye, kommunikatsiya uskunolari va dasturiy ta'minotni o'z ichiga olgan turli "aloqa uskunolari"dan iborat. Shu bois, axborot-kommunikatsiya sohasiga investitsiyalar asosan, kompyuter va telekommunikatsiyalarga, dasturiy ta'minot va xizmatlarga kiritiladi. Axborot texnologiyalari yordamida korxonani boshqarish uchun obyektni batafsil tahlil qilish, boshqaruv vazifalari va tuzilmasini o'rganish, shuningdek, axborot oqimlarini boshqarishni taqozo etadi. So'rov materiallarini tahlil qilish asosida axborotni boshqarish modeli ishlab chiqilib, u axborotni qayta ishlash vazifalari va yangi axborot oqimlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatadi.

1.2. Buxgalteriya hisobida dasturiy ta'minot vositalaridan foydalanish.

Operatsiyalar amalga oshirilganligini qayd etuvchi boshlang'ich hisob hujjatlari va ularni o'tkazishga doir farmoyishlar xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobi uchun asos bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan savdo va servis sohasida olinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqi bank korporativ plastik kartalaridan foydalangan holda to'langanida to'lov terminallarining cheklari ham boshlang'ich hisob hujjatlari deb tan olinadi.

Boshlang'ich hisob hujjatlari xo'jalik operatsiyalari amalga oshirilayotgan paytda yoki operatsiyalar amalga oshirib bo'linganidan keyin tuziladi.

Hisobot davriga tegishli bo'lgan xo'jalik operatsiyalari, agar ular amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar olinmagan bo'lsa, tegishli boshlang'ich hujjat rasmiylashtirilib, buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

Boshlang'ich hisob hujjatlarining majburiy rekvizitlari quyidagilardir: buxgalteriya hisobi sub'ekting nomi; hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy;

xo'jalik operatsiyasining nomi, mazmuni va o'lchov birliklari ko'rsatilgan miqdor o'lchovi (natura va pulda ifodalangan holda);

xo'jalik operatsiyasini bajargan shaxslarning (shaxsning) identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan familiyasi hamda ismi va otasi ismining bosh harflari yoxud boshqa rekvizitlari ko'rsatilgan holda lavozimlari nomi va imzolari.

Boshlang'ich hisob hujjatlarini tuzgan hamda imzolagan shaxslar ularning o'z vaqtida, to'g'ri va ishonchli tuzilishi, shuningdek buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun belgilangan muddatlarda topshirilishiga javobgardir.

Boshlang'ich hisob hujjatlari elektron hujjat tarzida tuzilishi va taqdim etilishi mumkin.

Boshlang'ich hisob hujjatlariga xo'jalik operatsiyasi ishtirokchilari tomonidan tasdiqlanmagan tuzatishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bank va kassa-pul hujjatlarida tuzatishlar hamda o'chirib yozishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Boshlang'ich hisob hujjatlari, buxgalteriya hisobi registrlari, moliyaviy hisobot va boshqa hisobotlar, shuningdek buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda yuritish bilan bog'liq boshqa hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlar mobaynida, biroq hisobot yilidan keyin kamida besh yil buxgalteriya hisobi sub'ekti tomonidan saqlanadi.

1.3.Hisob hujjatlarini elektron hujjat tarzida tuzish va taqdim etish.

Iqtisodiyotni boshqarishdagi o'zgarishlar, bozor munosabatlariga o'tish buxgalteriya hisobini tashkil qilish va olib borishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Har qanday iqtisodiy ob'ekt boshqarish faoliyatining asosini murakkab qurilishga ega bo'lgan axborot tizimlari tashkil qiladi, ularning tarkibi, faoliyat turi korxona, iqtisodiy ob'ekt yoki firmaning ko'lamiga bog'liq hisoblanadi.

Boshqaruv jarayonida buxgalteriya hisobi katta rol o'ynaydi, bu erda barcha axborotlarning 60% ga yaqini jamlangan. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari an'anaviy ravishda vazifalarning quyidagi majmualarini o'z ichiga oladi: asosiy vositalar hisobi, moddiy boyliklar hisobi, mehnat va ish haqi hisobi, tayyor mahsulotlar hisobi, moliyaviy hisoblash operatsiyalarining hisobi, ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, yig'ma hisob va hisobotlarni tuzish.

ShK (shaxsiy kompyuter)lar bazasida avtomatlashtirilgan ish joylarini tashkil qilish, korxonalarda mahalliy hisoblash tarmoqlarini yaratish, axborot bazasini tashkil qilish va iqtisodiy vazifalar majmuasini shakllantirishda yangi talablarni ilgari surildi. Ma'lumotlarni taqsimlash bazalari tizimini yaratish, turli foydalanuvchilar o'rtasida axborotlarni almashtirish, kompyuterda boshlang'ich hujjatlarni avtomatik shakllantirishning imkoniyatlari paydo bo'ldi va boshqaruv masalalarining vazifalararo majmualari vujudga keldi.

Vazifalararo majmuasini tashkil qilish "materiallar" dasturi ham ko'rib chiqilishi mumkin. Moddiy boyliklarning mavjudligi va xarajatni hisobga olish jarayonida uchta bo'lim:

- omborlar;
- hisobxona;
- moddiy-texnika ta'minoti bo'limi mutaxassislari faoliyat yuritadi.

Dasturiy majmua o'z ichiga uch qism:

- omborchi moduli;
- hisobxona moduli;
- moddiy texnika ta'minoti bo'limi modulini oladi.

Buxgalteriya hisobi majmualari murakkab ichki va tashqi aloqalarga ega.

Ichki aloqalar buxgalteriya hisobining ayrim vazifalari, majmualari va uchastkalarining axborotli o'zaro hamkorliklarini; Tashqi aloqalar – boshqaruvning o'zga vazifalarini amalga oshiruvchi boshqa bo'limlari hamda tashqi iqtisodiy ob'ektlar bilan o'zaro hamkorligini aks ettiradi.

Hisob vazifalari majmuasining axborotli aloqasi mashina dasturi asosida kiritilgan ishlab chiqishning uch pallasini farqlashga imkon beradi.

Birinchi pallada – birlamchi hisob, birlamchi hujjatlarni tuzish, ularni ishlab chiqish va hisobning har bir uchastkasi bo'yicha tahliliy hisobning qaydnomalari tuzilishi bajariladi.

Ishlab chiqishning ikkinchi pallasi provodkalarini tuzish, ularni tahliliy va sintetik hisobning turli registrari, schetlarning tartib raqamlari bo'yicha qayd daftari ordenlariga joylashtirishdan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarishning uchinchi pallasi yig'ma sintetik hisobni: asosiy kitobning schyotlari bo'yicha hisobot, saldo qaydnomalari va moliyaviy hisobotning shakllarini tuzishdan iborat bo'ladi.

Namunaviy buxgalteriya hujjatlari sohalararo va sohaviyga bo'linadi. Sohalararo hujjatlar barcha korxona iqtisodiy ob'ektlarda qo'llash uchun yagona bo'ladi. Sohaviy shakllar tavsianomaviy xarakterga ega.

Barcha birlamchi buxgalteriya hujjatlari GOST (hujjatlarning bir shaklga keltirilgan tizimlari) talablarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi.

Buxgalteriya hisobining hujjatlari turli belgilari bo'yicha tasniflanadi:

- belgilanishi bo'yicha – farmoyish beradigan, ijro (oqlaydigan), hisobli rasmiylashtiruvchi, murakkab;

- xo'jalik operatsiyalari mazmuni bo'yicha moddiy, pulli hisoblash;

- aks ettirgan operatsiyalarning hajmi bo'yicha yagona (birlamchi) yoki yig'ma;

- foydalanish usuli bo'yicha: bir martali va jamlovchi;

- hisobga oladigan o'rinlarining soni bo'yicha: bir qatorli va ko'p qatorli;

- tuzilish joyi bo'yicha: ichki va tashqi;

- to'ldirish usuli bo'yicha: qo'lda, hisobni avtomatlashtirish vositalari yordamida.

Buxgalteriya hisobining dasturiy ta'minlanishiga to'liq asosda bir qator axborotli-ma'lumotli dasturlar: "Maslahatchi hisobchi", "Maslahatchi-plyus", "Kafolat", "O'zbekiston soliqlari", "Yuridik ma'lumotnoma"ni kiritish mumkin. Axborotlarni to'ldirish huquqiy axborotlarni tarqatishning umumdavlat tarmog'i bo'yicha bajariladi.

Buxgalteriya vazifalarini yechishni AAT lar asosida tashkil qilish: birlamchi buxgalteriya hujjatlarini tuzish paytidan boshlab yakuniy moliyaviy hisobotni tuzish bilan yakunlanuvchi operatsiyalarning yig'indisidir.

Hozirgi bosqichda buxgalteriya operatsiyalarini axborot texnologiyasi asosida markazlashtirilgan holda ishlab chiqishda quyidagilar asosiy rol o'ynaydi:

- foydalanuvchining ish joyida o'rnatilgan kompyuterlarni qo'llash, bu yerda vazifalarni yechish hisobchi tomonidan bevosita uning ish joyida bajariladi;

- korxonaning turli xildagi bo'linmalari iqtisodiy vazifalarini integratsiyalangan holda ishlab chiqilishini ta'minlovchi mahalliy va ko'p bosqichli hisoblash tarmoqlarini shakllantirish;

- hisoblash texnikasida bajariladigan buxgalteriya hisobi tarkibini ancha ko'paytirish;

- har xil hisoblash bo'linmalari uchun korxonaning yagona taqsimlangan ma'lumotlar bazasini yaratish;

- birlamchi buxgalteriya hujjatlarini mashinada shakllantirish imkoniyatlari, bu qog'ozsiz texnologiyalarga o'tishni ta'minlaydi va hujjatlarni yig'ish va ro'yxatga olish bo'yicha operatsiyalar mehnat talabi darajasini kamaytiradi;

- buxgalteriya vazifalari majmualarini yechishni integratsiyalash;

- dialogli usulda amalga oshirish yo'li bilan axborot xizmat ko'rsatishni tashkil qilish imkoniyati.

Texnologik jarayonning barcha operatsiyalari ShK da bitta ish joyida va uning tuzilishiga ko'ra izchillik bilan bajariladi.

ShK da bajariladigan texnologik jarayonlar quyidagi uchta:

- tayyorlov;

- boshlang'ich;

- asosiy jarayonlarga ajratiladi.

Tayyorlov bosqichi dastur va ma'lumotlar bazasini ishga tayyorlash bilan bog'liq. Hisobchi mashinaga korxonaning boshlang'ich ma'lumotlarini kiritadi, buxgalteriya schyotlari rejasi va namunaviy buxgalteriya yozuvlarining tartibiga tuzatishlar kiritadi.

Boshlang'ich bosqich birlamchi hujjatlarni yig'ish va ro'yxatga olish bilan bog'liq. Avval ta'kidlanganidek, hujjatlarni qo'lda yoki avtomatlashtirilgan usulda shakllantirish mumkin. Hujjatlarni kiritish dasturi quyidagi vazifalarni bajarishni ko'zda tutadi:

- kiritilgan hujjatlarga nomer berish, ko'chirmaning sanasi va boshqa ma'lumotlari bilan registrini tuzish;

- kiritilgan hujjatlarga ma'lumotnomaviy va shartli doimiy alomatlarni avtomatik kiritish;
- xo'jalik operatsiyalarini qayd etish daftarida buxgalteriya yozuvlarini avtomatik bajarish;
- noto'g'ri to'ldirilgan hujjatlarni chiqarib tashlash;
- noto'g'ri to'ldirilgan hujjatlarni nazorat qilish va tuzatish kiritish;
- birlamchi hujjatlarni bosib chiqarish.

Asosiy bosqich ishning tugallovchi bosqichi bo'ladi va har xil hisobot shakllarini olish bilan bog'liq. Uni bajarish uchun «Moddiy boyliklar qaydnomasi», «Aylanish qaydnomasi» va «Hisobotlar» menyusi modulidan foydalaniladi.

Ko'pgina firmalar dasturlarni ikki xil variantda: mahalliy va tarmoqli ishlab chiqaradilar. Ta'kidlash kerakki, tarmoqli variant ancha murakkab va qimmat.

Buxgalteriya vazifalari ana'anaviy majmuasining tarkibi yangi boshqaruv, savdo va tahliliy modullarini yaratilishi hisobiga kengaytirilishi mumkin. Bunda asosiy tamoyillarga rioya qilish zarur – ADP lar o'zaro axborotli bog'langan bo'lishlari kerak. Bu faqat ADPlarning butun majmuasini bitta firmadan xarid qilingandagina mumkin.

Kichik korxonalarda BX AT yaratishda ShK dan keng foydalanish hisobchining ish joyida axborotlarni ishlab chiqish, saqlash va uzatish bo'yicha barcha tadbirlarni avtomatlashtirishga imkon beradi. Bunday BX AT larni yaratishda bir nechta yondoshishlar mavjud.

Birinci yondoshishda faqat moliyaviy hisobni avtomatlashtiruvchi tizim yaratiladi. Bunday BX AT – minihisobxonalar sinfiga kiradi. Qoida bo'yicha, bu tizimda buxgalteriya hisobi bitta odam – hisobchi tomonidan olib boriladi.

Ikkinchi yondashishda – moliyaviy hisobdan tashqari qisman boshqaruv tizimi ham har tomonlama avtomatlashtiriladi. Bu holda buxgalteriya hisobini ikkita odam: hisobchi va uning yordamchisi yoki kirishni cheklash yo'li bilan bitta ish joyi o'rnida yoki ikkita ish joylarida olib boriladi.

Moliyaviy va boshqaruv hisobini zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida avtomatlashtirish uchinchi yondoshishda erishiladi. Bunday tizimda ishlab chiqilayotgan axborotlarning katta hajmlarida ko'p foydalanuvchanlik usulidan foydalaniladi. Unda bir nechta ShKlar mahalliy tarmoqqa birlashtiriladi.

Kichik va o'rta korxonalardagi moliyaviy va boshqaruv hisobini qamrab oluvchi buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish uchun dasturiy majmua ikkita moduldan tashkil topadi.

Boshqaruv hisobining moduli tovar-moddiy boyliklari va arzon hamda tez eskiruvchan mollarning hisobi, tayyor mahsulotlarning hisobi, ish haqi bo'yicha hisob –kitoblar bo'limlari uchun so'mdagi va miqdoriy aks ettirilgandagi hisobni olib borishga imkon beradi.

Moliyaviy hisobning moduli buxgalteriya hisobining barcha schyotlari bo'yicha hisob olib borishga imkon beradi. Tahliliy registrlar va yakuniy hisob registrlari uning asosiy hisob registrlaridan bo'ladi.

Modullar o'rtasidagi aloqa xo'jalik operatsiyalarining qayd daftarini orqali amalga oshiriladi.

Belgilanishi bo'yicha ma'lumotnomalar beshta guruhga bo'linadi:

- umumiy belgilanish ma'lumotnomalari;
- materiallar – tovar boyliklarining qayd daftarini bilan bog'liq ma'lumotnomalar (materiallar, o'lchov birliklari, harakat operatsiyalari);
- buxgalteriya yozuvlari bilan bog'liq ma'lumotnomalar (schyotlar rejasi, provodkalar);
- tahliliy hisob bilan bog'liq ma'lumotnomalar (korxona ob'ektlari, bo'linmalar);
- valyuta kurslari bo'yicha ma'lumotnomalar.

Tuzilishi bo'yicha ma'lumotnomalar oddiy va murakkabga bo'linadi.

Oddiy ma'lumotnomalar andozaviy tuzilishga ega: kod, nom, qo'shimcha ma'lumotlar va schyot bo'yicha xizmatlar.

Murakkab ma'lumotnomalar o'z ichiga ma'lumotlarning kiritilganligining ikkita va undan ortiq bosqichlarini oladi. U yozuvlarning katta miqdorini ekranda joylashtirib bo'lmaydigan katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan. Dastlabki axborot bazaga birlamchi hujjatlardan kiritiladi.

Avtomatlashtirish uchun hisob bo'yicha quyidagi andozaviy birlamchi hujjatlardan foydalaniladi:

- moddiy boyliklarning harakati, qabul qilish dalolatnomasi, yuk xati, ro'yxatdan chiqarish dalolatnomasi;
- moliyaviy – hisoblash operatsiyalari to'lov topshiriqnomasi, kirish, chiqish kassa orderi va boshqalar;
- asosiy vositalar;
- mehnat va ish haqi (tabel, naryad);
- tayyor mahsulotlar – dalolatnomasi.

Birlamchi hujjatlarning axborotlari asosida tezkor axborotlarning fayllari shakllantiriladi, ularga tegishli ma'lumotnomalarning axborotlari avtomatlashtirilgan usulda kiritiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:


1. O'zbekiston Respublikasida zamonaviy axborot-kommunikatsiyalaridan foydalanish darajasi qanday?
1. Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi qanday?
2. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning yutuq va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. Kontragentlar deganda nimani tushunasiz?
4. Tashkilotlarning ma'lumotlari (STIR, IFUT (OKED) va boshqa statistik kodlari) qaysi hujjatlardan olinadi?
7. Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish qaysi hujjat bilan tartibga solinadi?
8. Buxgalteriya hisobida foydalaniladigan qanday dasturlarni bilasiz?

2-BOB. KORXONA MA'LUMOTLARINI SHAKLLANTIRISH. BOSHLANG'ICH QOLDIQLARNI KIRITISH.

- 2.1. Korxonalar haqidagi ma'lumotlarni kiritish.
- 2.2. Dasturiy ta'minotda ishlash uchun asosiy parametrlarni sozlash.
- 2.3. Korxonaning hisob siyosatini shakllantirish.
- 2.4. Schyotlar rejasi va unga o'zgartirishlar kiritish.
- 2.5. Faoliyat ko'rsatayotgan korxona ma'lumotlaridan foydalanilgan holda boshlang'ich qoldiqlarni shakllantirish va kiritish.
- 2.6. Kontragentlar bilan ishlash.

2.1. Korxonalar haqida ma'lumotlarni kiritish

Yangi ma'lumotlar bazasini birinchi marotaba ishga tushirishda konfiguratsiyadan foydalanish bo'yicha kelishuv bilan tanishish va uning shartlarini qabul qilish zarur.



Bundan keyin dasturda ishni boshlash mumkin. Tashkilot to'g'risida boshlang'ich ma'lumotlarni kiritish uchun **Pomoshnik vvoda svedenii ob organizatsii** yordamchisi ishga tushadi

Помощник ввода сведений об организации

Общие сведения об организации

Общие сведения
 Банковский счет
 Контактная информация
 Ответственные лица

Краткое наименование:

 Используется только в программе и служит для упрощения поиска и выбора организации (например, "Надежда").

Сокращенное наименование (по учредительным документам):

 Сокращенное наименование используется при оформлении документов (например, "ООО Надежда").

Полное наименование (по учредительным документам):

 Полное наименование используется при оформлении документов и при подготовке отчетности (например, "Общество с ограниченной ответственностью 'Надежда'").

Юр. / физ. лицо: Тип организации - юридическое лицо или индивидуальный предприниматель.

ИНН / ОКОНХ: /

Префикс: Префикс документов организации - буквенный код длиной не более трех знаков. В программе показывается перед номером документа и используется для независимой нумерации документов разных организаций.

Дополнительная информация

Общие сведения об организации сохраняются в справочнике "Организации" (меню "Предприятие" - "Организации")

[Далее](#)

Tashkilot to'g'risida boshlang'ich ma'lumotlarni kiritgach **Boshlang'ich yordamchidan** foydalanish tavsiya etiladi.

2.1.1. Boshlang'ich yordamchi

Tashkilot to'g'risidagi boshlang'ich ma'lumotlarni kiritgach, foydalanuvchiga boshlang'ich sozlamalarni o'rnatish imkonini beruvchi **Boshlang'ich yordamchi** ochiladi

Заполните и проверьте основные настройки и справочники
 Это можно сделать прямо сейчас или позднее

Заполните и проверьте справочник организаций
 Подтвердите корректность заполнения нажатием на кнопку "Заполнено и проверено". Пропустить этот шаг нельзя.

Настройка ведения учета

- [Организации](#)
Список организаций, учет которых ведется в программе
- [Настройка параметров учета](#)
Общие настройки по всем организациям
- [Учетная политика организаций](#)
Специфика учета каждой организации
- [Подразделения организаций](#)
Структурные подразделения организаций
- [Отчет о текущих настройках учета](#)
Отчет о текущих настройках ведения учета

Справочники


- [Статьи затрат](#)
Статьи производственных затрат
- [Номенклатура](#)
Материалы, товары, услуги и оборудование
- [Номенклатурные группы](#)
Номенклатурные группы для аккумуляции затрат
- [Склады](#)
Места хранения запасов
- [Контрагенты](#)
Поставщики, покупатели, налоговые органы

Начальные остатки

- [Способы отражения амортизации](#)
Способы отражения расходов по амортизации основных средств и
- [Основные средства](#)
Основные средства организаций
- [Способы отражения зарплат](#)
Способы отражения расходов по заработной плате
- [Сотрудники организаций](#)
Сотрудники организаций
- [Ввод начальных остатков](#)
Помощник ввода начальных остатков

2.1.2. "Bistroye osvoyniye 1S:Buxgalterii 8" elektron qo'llanmasi

Bistroye osvoyniye 1S:Buxgalterii 8 elektron qo'llanmasi (Spravka → Bistroye osvoyniye 1S:Buxgalteriya 8) dastur bilan ishlashni endi boshlayotganlar uchun mo'ljallangan.




2.1.3. Ish stoli

Asosiy menyu yordamida hujjatlarga va ma'lumotlar bazasining boshqa obyektlariga kirish amalga oshiriladi, buni bajarishning muqobil usuli **Rabochiy stol** hisoblanadi.

Ish stoli navigatsiya paneli (chap tomonda) va ish maydonidan iborat. Ish maydonining yuqori qismida ushbu bo'lim bo'yicha hujjatlar ro'yxati joylashgan.

Quyi qismida ma'lumotlar, yangi hujjatni kiritish hamda ushbu hisob bo'limi bo'yicha hisobotlar tayyorlash uchun havolalar joylashgan.




Masalan, **Bank** bo'limidagi **Platejnoye porucheniye** havolasiga bosilganda yangi hujjat kiritish uchun shakl ochiladi, **Vipiska banka** havolasiga bosilganda esa shunday nomdagi ishlanma shakli ochiladi. **OSV po schetu 5100, Kartochka scheta 5100, Analiz scheta 5100** havolalaridan foydalangan holda **Bank** bo'limida eng ko'p ishlatiladigan hisobotlarni tezda shakllantirish mumkin.

Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar, ishlanmalar, ma'lumotnomalar va hisobotlarning bunday tasvirlanishi hisobning alohida hududini olib boruvchi buxgalter uchun ish stoli sifatida xizmat qilishi mumkin


2.1.4. Buxgalter monitori

Monitor buxgaltera tezda va qulay shaklda kassa va hisob raqamdagi pul qoldiqlari, debitor va kreditor qarzdorliklar, majburiy hisobotlarni topshirish va soliqlarni to'lash muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. **Monitor buxgaltera** ish stolining navigatsiya panelida joylashgan



2.1.5. Rahbar uchun hisobot

Otcheti rukovoditelyu bo'limi buxgalteriya hisobiga asosan tashkilotning moliyaviy holati va moliyaviy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi.



Operativnie dannie bo'limida hozirgi kun holatiga bir nechta ko'rsatkichlar bo'yicha tezkor ma'lumotlar keltiriladi. **Otcheti dlya rukovoditelya** bo'limidagi hisobotlar yordamida ushbu tezkor ma'lumotlarni batafsil o'rganish mumkin.

Ma'lumotlarni tahlil qilishning tavsiya etiladigan ketma-ketilgiga **Kak polzovatsya otchetami** havolasi orqali o'tish mumkin.

Dastur buxgalteriya hisobini yuritish uchun to'ldirilgan hisobvaraqlar rejasi va boshqa sozlamalar bilan qo'yiladi. Hisob yuritish sozlamalari foydalanuvchi tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

Dasturda ishni boshlash uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlarni to'ldirish uchun, hisobni to'g'ri yuritish maqsadida tezda va qulay shaklda barcha asosiy sozlamalarni o'rnatishga yordam beradigan **Boshlang'ich yordamchidan** foydalanish tavsiya etiladi.

2.2. Dasturiy ta'minotda ishlash uchun asosiy parametrlarni sozlash


Analitik hisob parametrlari **Predpriyatiye** menyusining **Nastroyka parametrov ucheta** shaklida o'rnatiladi. Analitik hisob parametrlari sozlamalari ma'lumotlar bazasining barcha tashkilotlari uchun umumiy hisoblanadi.

“Vidi deyatelnosti” bo'limi

Vid deyatelnosti bo'limida ma'lumotlar bazasidagi tashkilotlar shug'ullanuvchi faoliyat turlari ko'rsatiladi. O'rnatilgan bayroqchalardan kelib chiqqan holda zarur sozlamalar ro'yxati aniqlanadi.

- Agarda tashkilotlardan kamida bittasi ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan bo'lsa **Proizvodstvo produkcii, vipolneniye rabot, okazaniye uslug** bayroqchasi o'rnatiladi.

- Agarda tashkilotlarning kamida bittasi chakana savdo bilan shug'ullanadigan bo'lsa **Roznichnaya trgovlya** bayroqchasi o'rnatiladi.



“Zapasi” bo'limi

Ushbu shaklning **Zapasi** bo'limida quyidagi sozlamalar o'rnatiladi:

- Agarda tovar-moddiy boyliklarni sotish ularning tashkilot balansiga amalda qabul qilinishidan oldin bajariladigan bo'lsa **Razreshayetsya spisanie zapasov pri otsutstvii ostatkov po dannim ucheta** bayroqchasini o'rnatish zarur.

- Agarda tashkilotlarning kamida bittasi qaytariladigan idishlar hisobini yuritisa **Vedetsya uchet vozvratnoy tari** bayroqchasini qo'yish zarur.

- Agarda tashkilotlarning kamida bittasi partiya hisobini yuritisa, **Vedetsya uchet po partiyam (dokumentam postupleniya)** bayroqchasini o'rnatish zarur. Bu holda tovar-moddiy

boyliklar (TMB) hisobvaraqlariga “Partii” subkontosi qo‘shiladi. Hujjatlarni o‘tkazishda “Partii” subkontosi avtomatik ravishda to‘ldiriladi. Yaratilgan “Partii” subkontosi faqat FIFO usulida hisob yurituvchi tashkilot tomonidan foydalaniladi. Tovarlarni o‘rtacha tannarx bo‘yicha hisobga oluvchi tashkilotlar uchun “Partii” subkontosi to‘ldirilmaydi.


Agarda dasturda zahiralar hisobi har xil omborlar bo‘yicha yuritilmasa **Ne vedetsya** variantini tanlash mumkin. Agarda omborlar bo‘yicha hisobga zarurat bo‘lsa, omborlar kesimida faqat zahiralar miqdori hisobini yuritish mumkin, bunda zahiralarining chiqib ketish narxi ushbu nomenklaturaning barcha omborlardagi umumiy qiymatini uning barcha omborlardagi umumiy miqdoriga bo‘lish orqali aniqlanadi. Bunaqa hisob yuritish uchun **Vedetsya no kolichestvu** varianti tanlanadi. **Vedetsya po kolichestvu i summe** variantini tanlash zahiralar miqdori va ularning qiymati hisobining omborlar kesimida yuritilishiga olib keladi. Bunda zahiralarining chiqib ketish narxi har bir ombor uchun alohida aniqlanadi.

“Товари v roznitse” bo‘limi

Agarda tashkilotlarning kamida bittasi chakana savdo bilan shug‘ullanadigan bo‘lsa, **Товари v roznitse** bo‘limida quyidagi sozlamalarni o‘rnatish mumkin:

▪ **Po nomenklature (oboroti)** – 2920.3 “Товари v roznichnoy trgovle (v NTT po prodajnoy stoimosti)” schetiga muomalali yangi “Nomenklatura” subkontosi qo‘shiladi. Ushbu subkonto bo‘yicha qoldiqlarsiz, faqat muomalalar hisobga olinadi.

▪ **Po stavkam NDS** – 2920.3 “Товари v roznichnoy trgovle (v NTT po prodajnoy stoimosti)” i 2980.2 “Torgovaya natsenka v neavtomatizirovannix trgovix tochkax” schetlariga “Stavki NDS” subkontosi qo‘shiladi.



“Denejnie sredstva” bo‘limi

Agarda tashkilotlardan kamida bittasi pul mablag‘larining aylanish moddalari bo‘yicha hisob yuritsa **Denejnie sredstva** bo‘limida **Po statyam dvijeniya denejnix sredstv** bayroqchasi o‘rnatiladi. Agarda bayroqcha o‘rnatilsa pul mablag‘lari schetlariga **Stati dvijeniya denejnix sredstv** subkontosi qo‘shiladi hamda bank va kassa hujjatalrida pul mablag‘lari aylanishi moddalarini tanlash mumkin bo‘ladi. Hujjatni o‘tkazishda ko‘rsatilgan moddaga asosan subkonto to‘ldiriladi.

Naqd pul mablag‘lari hisobi tashkilot kassalari kesimida yuritiladigan bo‘lsa **Vesti uchet nalichnix denejnix sredstv v razreze kass organizatsiy** bayroqchasi o‘rnatiladi. Agarda bayroqcha o‘rnatilsa pul mablag‘lari schetlariga **Kassi organizatsiy** subkontosi qo‘shiladi.

Har bir kassa uchun alohida kassa kitoblarini shakllantirishga zarurat bo‘lsa **Razdelyat kassovie knigi po kajdoy kasse** bayroqchasi o‘rnatiladi.

Har bir kassa uchun kassa hujjatlari raqamlanishining alohida hisobini olib borish uchun zarurat bo‘lsa **Razdelyat numeratsiyu kassovix dokumentov** (tashkilot kassalari bo‘yicha prefikslardan foydalangan holda) bayroqchasi o‘rnatiladi.

Настройка параметров учета

Виды деятельности
Запасы
Товары в рознице
Денежные средства
Расчеты с контрагентами
Расчеты с персоналом
Зачет авансов
Производство
НДС
Акцизный налог

Денежные средства

Аналитический учет по статьям движения денежных средств может использоваться на счетах 5000 «Касса», 5100 «Расчетные счета», 5200 «Валютные счета», 5500 «Специальные счета в банках». Обороты по статьям движения денежных средств используются при формировании бухгалтерской отчетности для автоматического заполнения Формы №4 «Отчет о движении денежных средств».

Если необходимости в заполнении Формы №4 нет, аналитический учет по статьям движения денежных средств можно отключить. Это упростит ввод банковских и кассовых документов - не нужно будет указывать статью движения денежных средств в каждом документе.

Учет движения денежных средств в банках всегда ведется по расчетным счетам. Дополнительно ведется аналитический учет:

☒ По статьям движения денежных средств

Аналитический учет по кассам предприятия может использоваться на счетах 5010 «Касса в национальной валюте», 5020 «Касса в иностранной валюте», 5710 «Переводы в пути», 5715 «Переводы в пути в иностранной валюте» при использовании разных кассовых помещений в организации

☐ Вести учет наличных денежных средств в разрезе касс организации

☐ Разделять кассовые книги по каждой кассе

☐ Разделять нумерацию кассовых документов (используется прифе...

OK Закреть ?

“Rascheti s kontragentami” bo‘limi

Rascheti s kontragentami bo‘limida barcha tashkilotlar uchun yagona hisoblangan, xaridorlar va ta‘minotchilarning to‘lov muddatlari belgilanadi. To‘lov muddatlari kechiktirilgan qarzlar summalarini hisobotlarda aks ettirish uchun foydalaniladi.

To‘lov muddatlarini har bir shartnoma uchun yakka tartibda **Dogovori kontragentov** ma’lumotnomasida belgilash mumkin.

Hisob-kitob hujjatlari kesimida analitik hisob yuritishga zarurat bo‘lsa **Po dokumentam raschetov** bayroqchasi o‘natiladi.

Настройка параметров учета

Запасы
Товары в рознице
Денежные средства
Расчеты с контрагентами
Расчеты с персоналом
Производство
НДС
Акцизный налог

Расчеты с контрагентами

Счет 6000 «Расчеты с поставщиками и подрядчиками» и др.

Учет расчетов с контрагентами всегда ведется по контрагентам и договорам. Дополнительно ведется аналитический учет:

☐ По документам расчетов

Срок оплаты покупателей, дней:

Срок, после которого долг покупателей считается просроченным, если другой срок не установлен в договоре

Срок оплаты поставщикам, дней:

Срок, после которого наш долг поставщикам считается просроченным, если другой срок не установлен в договоре

OK Закреть ?

“Rascheti s personalom” bo‘limi

Agarda tashkilotlarning kamida bittasiga ish haqi bo'yicha o'tkazmalarni har bir xodim uchun hosil qilish zarur bo'lsa **Po kajdomu rabotniku** belgilanadi. Bu holda 6710 "Расчети с персоналом по оплате труда" schetiga **Rabotniki organizatsiy** subkontosi qo'shiladi.

Agarda barcha tashkilotlar mehnat haqi bo'yicha ma'lumotlarni bazaga jamlangan o'tkazmalar orqali barcha xodimlar bo'yicha kiritmoqchi bo'lsa **Svodno po vsem rabotnikam** belgilanadi.

The screenshot shows a window titled "Настройка параметров учета" (Accounting Parameter Settings). On the left is a sidebar menu with items: "Запасы", "Товары в рознице", "Денежные средства", "Расчеты с контрагентами", "Расчеты с персоналом", "Производство", "НДС", and "Акцизный налог". The main area is titled "Расчеты с персоналом" (Calculations with personnel) and shows "Счет 6700 «Расчеты с персоналом по оплате труда» ...". Below this, it states "Аналитический учет расчетов с персоналом ведется:" (Analytical accounting of calculations with personnel is conducted:). There are two radio button options: "По каждому работнику" (Selected) and "Сводно по всем работникам". At the bottom right are buttons for "OK", "Закрыть" (Close), and a help icon.


“Zachet avansov” bo’limi

Agarda **Zachet avansov po kontragentam i podotchetnim litsam v sisteme vipolnyayetsya v avtomaticheskom rejime** bayroqchasi o'rnatilsa, bo'naklarni hisobga olish kontragentlar bo'yicha shartnomalar kesimida, hisobdor shaxslar bo'yicha esa o'zaro hisob-kitoblar qoldiqlari saqlanuvchi schetlariga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi.

The screenshot shows the same "Настройка параметров учета" window, but with the "Зачет авансов" (Advance Accounting) section selected in the sidebar. The main area is titled "Зачет авансов" (Advance Accounting). The first option, "Зачет авансов по контрагентам и подотчетным лицам в системе выполняется в автоматическом режиме" (Selected), is checked. Below it, there are two unchecked options: "Зачитывать авансы по контрагентам только по установленным соответствиям счетов" and "Зачитывать авансы по подотчетным лицам только по установленным соответствиям счетов". Each option has a descriptive paragraph and a link to "Установить соответствия счетов для зачета авансов по контрагентам" and "Установить соответствия счетов для зачета авансов по подотчетным лицам". At the bottom right are buttons for "OK", "Закрыть" (Close), and a help icon.

Agarda **Zachitivat avansi po kontragentam tolko po ustanovlennim sootvetstviyam schetov** bayroqchasi o'natilsa, bo'naklarni hisobga olish kontragentlar bo'yicha faqatgina foydalanuvchi tomonidan ko'rsatilgan schotlar bo'yicha shartnomalar kesimida amalga oshiriladi.

Bu holda **Ustanovit sootvetstviya schetov dlya zacheta avansov po kontragentam** havolasida tegishli hisob-kitob va bo'nak schetlari ko'rsatiladi.




Xuddi shu tarzda hisobdor shaxslar uchun schotlar muvofiqligi ko'rsatiladi

“Proizvodstvo” bo‘limi

Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar uchun **Proizvodstvo** bo'limida rejaviy narx turi ko'rsatiladi. Oddiy holda ushbu rejaviy narxlar ishlab chiqarish hujjatlariga tushadi.

Agarda xom-ashyodan ishlab chiqarish jarayonida foydalanishda namlik evaziga vujudga kelgan miqdor farqi hisobi yuritilsa **Uchitivat uroven vlajnosti pri peredache sirya v proizvodstvo** bayroqchasi o'rnatiladi.



“NDS” bo‘limi

NDS bo‘limida xorijiy valyutadagi hujjatlar uchun va kelib tushgan qiymatliklar bo‘yicha QQSni hisobga olishni aks ettirish usullari belgilanadi.

Настройка параметров учета

НДС

Для документов в иностранной валюте сумма НДС в суммах рассчитывается:

- ☒ По сумме документа в суммах (рекомендуется)
Сумма НДС соответствует сумме документа в суммах, умноженной на ставку НДС.
При выборе этого варианта необходимо указать дату, начиная с которой он будет применяться. Если дата не имеет значения, рекомендуется указать 01.01.1980.
Применяется с: 01.01.1980
- ☐ По валютной сумме НДС
Сумма НДС соответствует валютной сумме НДС, умноженной на курс валюты.

Способ отражения зачета НДС по приобретенным ценностям

- ☐ Зачет НДС по приобретенным ценностям производится документами поступления без автоматического зачета
- ☒ Зачет НДС производится автоматически регламентной операцией в конце месяца.

OK | Закрыть

Agarda “Zachet NDS po priobretennim sennostyam proizvoditsya dokumentami postupleniya bez avtomaticheskogo zacheta” tanlansa, hisobvaraqlar rejasida 4410 schet har bir QQS uchun alohida subschettlarga ega bo‘ladi va QQS bo‘yicha bo‘naklarni hisobga olish kelib tushish hujjatlarida **Otrazit vichet NDS** bayroqchasi o‘rnatilgan holda amalga oshiriladi.

“Aksizniy nalog” bo‘limi

Agarda tashkilot aksiz solig‘i to‘lovchisi bo‘lsa **V programme vedetsya uchet aksiznogo naloga** bayroqchasini o‘rnatish va aksiz solig‘i hisobini yuritish usulini – **v razreze po vidam produksii** yoki **svodno po vsey produksii** ko‘rsatish lozim.

Настройка параметров учета

Акцизный налог

- ☒ В программе ведется учет акцизного налога
- ☐ В разрезе по видам продукции
Суммы начисленного и уплаченного акцизного налога учитываются в разрезе видов подакцизной продукции.
- ☒ Сводно по всей г...
Суммы начисленного сводно по всей г... на расчеты налога в счетах бухгалтерск...

[Ставки акцизного н...](#)

Ставки акцизного налога

Применяется с: 01.01.2012 по 31.12.2012

Вид акцизной продукции	Един...	Ставка (за ед. с...
Алкогольная продукция	дал	
Спирт этиловый	дал	
Пиво	дал	
Масло растительное (хлопковое)	т	
Сигареты	тыс. ...	
Нефтепродукты	т	
Ювелирные изделия	%	
Столовые приборы из серебра	%	
Газ природный	%	
Газ сжиженный	%	

OK | Записать | Закрыть

Stavki aksiznogo naloga havolasiga bosilganda stavkalarni to'ldirish uchun shakl ochiladi

2.3. Korxonaning hisob siyosatini shakllantirish

Amaldagi qonunchilik birqancha yo'nalish bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritishning bir nechta usullaridan bittasini tanlash imkonini beradi. O'sha tanlangan usullar to'plami tashkilotning hisob siyosati sanaladi.

